

## MAHALLIY XOM ASHYO ASOSIDA ISHLAB CHIQARISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

*Muxammadiyeva Maxfirat Isomiddin qizi*

*Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti*

*E-mail: maxfiratmuxammadiyeva@gmail.com*

### Annotatsiya

Ushbu maqolada mahalliy xom ashyo asosida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligi tahlil qilingan. Tadqiqotda ishlab chiqarish tannarxi, resurslardan foydalanish darajasi hamda import o'rnini bosish jarayonlari o'rganilgan. Natijalar shuni ko'rsatadiki, mahalliy resurslardan samarali foydalanish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va milliy iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda texnologik modernizatsiya va boshqaruv tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga ega ekanligi asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** mahalliy xom ashyo, ishlab chiqarish samaradorligi, tannarx, import o'rnini bosish, resurslardan foydalanish, sanoat rivoji.

### Аннотация

В данной статье проанализирована экономическая эффективность производства на основе местного сырья. В исследовании рассмотрены вопросы себестоимости продукции, уровня использования ресурсов и процессов импортозамещения. Результаты показывают, что эффективное использование местных ресурсов способствует снижению производственных затрат, обеспечению экономической устойчивости и повышению конкурентоспособности национальной экономики. Также обоснована важность технологической модернизации и совершенствования системы управления для повышения эффективности производства.

**Ключевые слова:** местное сырье, эффективность производства, себестоимость, импортозамещение, использование ресурсов, промышленное развитие.

### Annotation

This article analyzes the economic efficiency of production based on local raw materials. The study examines production costs, the level of resource utilization, and import substitution processes. The results indicate that the efficient use of local resources contributes to reducing production costs, ensuring economic stability, and increasing the competitiveness of the national economy. It is also substantiated that technological modernization and improvement of management systems play a key role in enhancing production efficiency.

**Keywords:** local raw materials, production efficiency, cost reduction, import substitution, resource utilization, industrial development.

## KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayonlari chuqurlashib borayotgan sharoitda milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini ta'minlash, ishlab chiqarish xarajatlarini optimallashtirish va raqobatbardoshlikni oshirish dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan, mahalliy xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish va importga qaramlikni kamaytirish iqtisodiy siyosatning ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekiston Respublikasida tabiiy resurslar va xom ashyo bazasining yetarlicha boyligi mavjud bo'lishiga qaramay, ularni chuqur qayta ishlash darajasi hamda ishlab chiqarish jarayonlariga integratsiya qilish samaradorligi hali to'liq darajada amalga oshirilmagan. Natijada ayrim tarmoqlarda importga qaramlik saqlanib qolmoqda, ishlab chiqarish quvvatlaridan foydalanish darajasi yetarli emas va qo'shimcha qiymat yaratish imkoniyatlari to'liq ishga solinmayapti.

Mahalliy xom ashyo asosida ishlab chiqarishni rivojlantirish nafaqat tannarxni kamaytirish, balki logistika xarajatlarini qisqartirish, ishlab chiqarish jarayonlarini barqarorlashtirish va milliy iqtisodiyotda qo'shimcha qiymat zanjirini kengaytirish imkonini beradi. Ayniqsa, sanoat korxonalarida energiya va resurslardan oqilona foydalanish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu jarayonda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish hamda ichki resurslardan maksimal darajada foydalanish asosiy omillar sifatida qaraladi.

Shu bilan birga, mahalliy xom ashyo asosidagi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda hududlararo iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish hamda yirik va kichik biznes subyektlari o'rtasida integratsiyani kuchaytirish zarurati yuzaga kelmoqda. Bu omillar ishlab chiqarish quvvatlaridan to'liq foydalanish va ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta'minlashga xizmat qiladi.

Mazkur sharoitda mahalliy xom ashyo asosida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini nazariy va amaliy jihatdan baholash, uning samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi omillarni aniqlash hamda tegishli taklif va tavsiyalar ishlab chiqish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga ega.

Tadqiqotning asosiy maqsadi mahalliy xom ashyo asosida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning samarali mexanizmlarini ishlab chiqishdan iborat.

Mazkur maqsadga erishish uchun quyidagi vazifalar belgilandi:

- mavjud nazariy yondashuvlar va amaliy holatni tahlil qilish;

- mahalliy xom ashyo asosidagi ishlab chiqarish samaradorligini baholash usullarini takomillashtirish;
- hududlararo iqtisodiy hamkorlik va davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini asoslash;
- energiya va resurs samaradorligini oshirish yo‘llarini aniqlash.

Tadqiqot natijalari mahalliy xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish orqali ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, korxonalar faoliyatining iqtisodiy samaradorligini oshirish va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini kuchaytirishga xizmat qiladi.

### METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotning metodologik asosi mahalliy xom ashyo asosida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirish mexanizmlarini aniqlashga qaratilgan kompleks yondashuvga asoslanadi. Tadqiqot jarayonida nazariy va amaliy tahlil usullarining uyg‘unligi ta‘minlanib, iqtisodiy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligi tizimli ravishda o‘rganildi.

Tadqiqotda monografik, iqtisodiy-statistik, qiyosiy-tahliliy, korrelyatsion-regression, hisob-kitob hamda konstruktiv usullar qo‘llanildi<sup>1</sup>. Ushbu usullar yordamida mahalliy xom ashyo asosidagi ishlab chiqarish samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillar, ularning o‘zaro bog‘liqligi hamda rivojlanish tendensiyalari aniqlashtirildi.

Tahlilning dastlabki bosqichida turli iqtisodiy sharoitlarda shakllangan tajribalar qiyosiy jihatdan o‘rganildi. Bu orqali mahalliy xom ashyo resurslaridan foydalanish samaradorligini belgilovchi asosiy omillar tizimlashtirildi hamda ishlab chiqarish jarayonida mavjud muammolar va foydalanilmayotgan imkoniyatlar aniqlashtirildi.

Mahalliy xom ashyo asosida ishlab chiqarishning potentsial imkoniyatlarini baholashda intraregional bozor sig‘imini aniqlash yondashuvidan foydalanildi. Ushbu ko‘rsatkich hududiy iqtisodiyotda mahalliy resurslarga bo‘lgan talab, ularning qamrov darajasi va import hajmi o‘rtasidagi bog‘liqlik asosida hisoblandi:

$$Q_{\text{pot}} = \sum_{i=1}^n D_i \times K_{\text{mah}} - Q_{\text{imp}}$$

bu yerda  $Q_{\text{pot}}$  – potentsial bozor sig‘imi,  $D_i$  – i-sanoat va qishloq xo‘jaligi korxonalarining mahalliy xom ashyoga bo‘lgan talabi,  $K_{\text{mah}}$  – mahalliy xom ashyoning qamrov koeffitsienti,  $Q_{\text{imp}}$  – import hajmi.

<sup>1</sup> Wooldridge J.M. *Introductory Econometrics: A Modern Approach*. — 7th ed. — Boston: Cengage Learning, 2020.

Mazkur ko‘rsatkich mahalliy xom ashyo asosidagi ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyatlarini aniqlash hamda ichki bozor sig‘imini baholashga xizmat qiladi.

Ishlab chiqarish samaradorligini kompleks baholash maqsadida agregat ko‘rsatkichlar tizimidan foydalanildi. Bunda umumiy samaradorlik darajasi boshqaruv tizimi, ishlab chiqarish sharoitlari va texnologik-iqtisodiy o‘zgarishlar samaradorligining yig‘indisi sifatida ifodalanadi:

$$E = E_{\text{boshq}} + E_{\text{shart}} + E_{\text{o'zgarish}}$$

bu yerda  $E_{\text{boshq}}$  – boshqaruv tizimining samaradorligi,  $E_{\text{shart}}$  – ishlab chiqarish sharoitlarining samaradorligi,  $E_{\text{o'zgarish}}$  – texnologik va iqtisodiy o‘zgarishlarning samaradorligi. Har bir komponent 0 dan 1 gacha ball bilan baholanadi va umumiy ko‘rsatkich 0–3 oralig‘ida bo‘ladi.

Mazkur yondashuv ishlab chiqarish tizimining turli komponentlarini birgalikda baholash va ularning umumiy natijaga ta‘sirini aniqlash imkonini beradi.

Sanoat korxonalarida energiya resurslaridan samarali foydalanishni baholashda aktiv va reaktiv quvvatni muvozanatlashga qaratilgan iqtisodiy-matematik modellar qo‘llanildi. Ushbu modellar energiya sarfini me‘yoriy chegaralar doirasida optimallashtirish va ortiqcha yo‘qotishlarni kamaytirishga xizmat qiladi:

$$\sum_{n=1}^N P_n(f) - \sum_{m=1}^M \sum_{k=1}^{K_1} P_{kl}(f)x_{kl} \leq P_c$$

$$Q_{\min}(f) \leq \sum_{n=1}^N \left[ Q_n(f) - \sum_{m=1}^{M_n} Q_m^{(n)}(f)c_{mn} \right] \leq Q_{\max}(f)$$

$$U_{\min} \leq U_y(f) \leq U_{\max}$$

bu yerda  $P_{n(f)}$ ,  $Q_{n(f)}$  – aktiv va reaktiv quvvat,  $P_c$ ,  $Q_{\min}$ ,  $Q_{\max}$ ,  $U_{\min}$ ,  $U_{\max}$  – normativ chegaralar.

Shuningdek, mahalliy xom ashyo asosidagi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda institutsional omillarni baholash maqsadida davlat-xususiy sheriklik hamda hududlararo iqtisodiy hamkorlik mexanizmlarining o‘rni tahlil qilindi. Ushbu yondashuv ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash va resurslardan samarali foydalanishni ta‘minlash imkoniyatlarini aniqlashga xizmat qiladi.

Natijada qoʻllanilgan metodologik yondashuv mahalliy xom ashyo asosida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini har tomonlama baholash, uning asosiy omillarini aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqish uchun zarur ilmiy asosni shakllantiradi.

### **NATIJALAR**

Tadqiqot natijalari mahalliy xom ashyo asosida ishlab chiqarishning iqtisodiy samaradorligini baholashning takomillashtirilgan yondashuvlari asosida shakllantirildi. Hisob-kitoblar turli iqtisodiy sharoitlarga ega hududlar misolida amalga oshirilib, olingan natijalar qiyosiy tahlil asosida umumlashtirildi.

Olingan natijalar mahalliy xom ashyo resurslaridan kengroq foydalanish ichki bozor sigʻimini sezilarli darajada oshirish imkonini berishini koʻrsatdi. Xususan, qishloq xoʻjaligi xom ashyolari asosida ishlab chiqarishni kengaytirish hisobiga tahlil qilingan hududda potentsial bozor hajmi 42 foizgacha oshishi mumkinligi aniqlandi. Shu bilan birga, sanoat korxonasi misolida mahalliy metall chiqindilari va rudalardan foydalanish ishlab chiqarish bozor sigʻimini oʻrtacha 28 foizga kengaytirish imkonini beradi. Bu esa import hajmini qariyb 35 foizga qisqartirish uchun yetarli ichki zaxiralar mavjudligini koʻrsatadi.

Iqtisodiy samaradorlikni kompleks baholash natijalari ishlab chiqarish tizimining turli komponentlari oʻrtasidagi bogʻliqlikni aniqlash imkonini berdi. Qiyosiy tahlil shuni koʻrsatdiki, ayrim hududlarda samaradorlik darajasining pastligi ishlab chiqarish quvvatlaridan toʻliq foydalanilmasligi bilan izohlanadi. Xususan, ishlab chiqarish quvvatlarining yarmigacha foydalanilmayotgani umumiy samaradorlikka salbiy taʼsir koʻrsatmoqda. Aksincha, boshqaruv tizimini takomillashtirish va texnologik yangilanishlarni joriy etish orqali samaradorlik koʻrsatkichining sezilarli darajada oshishi kuzatildi.

Sanoat korxonasi misolida ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish muhim natijalarni berdi. Xususan, energiya resurslaridan foydalanishni takomillashtirish natijasida yillik elektr energiyasi sarfi 75 mln kVt/soatdan 61 mln kVt/soatgacha kamaydi, bu esa taxminan 19 foizlik tejamkorlikni anglatadi. Shu bilan birga, texnologik jarayonlarni avtomatlashtirish orqali metall eritish vaqti 37 sekunddan 22 sekundgacha qisqardi, yaʼni ishlab chiqarish tezligi deyarli ikki baravar oshdi. Mazkur oʻzgarishlar ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish va korxonalar rentabelligini oshirishga bevosita ijobiy taʼsir koʻrsatadi.

Ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda institutsional omillarning ham muhim oʻrni aniqlandi. Xususan, davlat-xususiy sheriklik asosida moliyalashtirish mexanizmlarini joriy etish kichik biznes subyektlarini ishlab chiqarish jarayonlariga jalb qilish imkonini beradi. Taklif etilgan model asosida mikrokorxonalar uchun yangi ishlab chiqarish jihozlarini oʻrnatish imkoniyati kengayadi, bu esa yirik va kichik

biznes o‘rtasidagi hamkorlikni kuchaytiradi. Natijada ishlab chiqarish infratuzilmasi kengayadi va ichki bozorning to‘liqroq qamrab olinishi ta‘minlanadi.

Umuman olganda, olingan natijalar mahalliy xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, energiya va resurs tejamligini ta‘minlash hamda importga qaramlikni kamaytirishda muhim omil ekanligini ko‘rsatdi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanish, texnologik modernizatsiya va institutsional mexanizmlarni rivojlantirish orqali ushbu samaradorlikni yanada oshirish imkoniyati mavjud.

### MUHOKAMA

Olingan natijalar mahalliy xom ashyo asosida ishlab chiqarishni rivojlantirish milliy iqtisodiyotda muhim strategik ahamiyatga ega ekanligini tasdiqlaydi. Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, ichki resurslardan samarali foydalanish nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki tannarxni kamaytirish va importga qaramlikni sezilarli darajada qisqartirish imkonini beradi. Bu holat iqtisodiy barqarorlikni ta‘minlashda muhim omil sifatida namoyon bo‘ladi.

Qiyosiy tahlil natijalari turli hududlarda ishlab chiqarish samaradorligi darajasining bir xil emasligini ko‘rsatdi. Ayrim hududlarda ishlab chiqarish quvvatlarining to‘liq ishlatilmasligi va xo‘jalik subyektlari o‘rtasida integratsiyaning sustligi samaradorlikning past bo‘lishiga olib kelmoqda. Bu esa mahalliy xom ashyo resurslari mavjud bo‘lsa-da, ulardan to‘liq foydalanilmayotganini anglatadi. Shu nuqtai nazardan, ishlab chiqarish jarayonlarini tashkil etishda hududiy hamkorlikni kuchaytirish va kichik hamda yirik biznes o‘rtasidagi aloqalarni rivojlantirish zarur hisoblanadi.

Natijalar sanoat korxonalarida texnologik modernizatsiya va boshqaruv tizimini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etishini ham ko‘rsatdi. Energiya sarfining kamayishi va ishlab chiqarish vaqtining qisqarishi ishlab chiqarish samaradorligining oshishiga bevosita ta‘sir ko‘rsatadi. Bu esa zamonaviy texnologiyalarni joriy etish va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali katta iqtisodiy samaraga erishish mumkinligini anglatadi.

Shuningdek, institutsional omillar, xususan davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarining rivojlanishi ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda muhim vosita sifatida namoyon bo‘ladi. Moliyalashtirish manbalarining diversifikatsiyasi va kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash ishlab chiqarish infratuzilmasini kengaytirish va yangi ish o‘rinlari yaratish imkonini beradi. Bu esa o‘z navbatida ichki bozorni rivojlantirish va iqtisodiy faollikni oshirishga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko‘rsatdiki, mahalliy xom ashyo asosida ishlab chiqarishni rivojlantirish faqat resurslarning mavjudligi bilan emas, balki ularni qayta ishlash darajasi, texnologik ta‘minot, boshqaruv samaradorligi va iqtisodiy muhit bilan ham

bevosita bog‘liqdir. Shu sababli, ushbu yo‘nalishda kompleks yondashuvni qo‘llash, ya’ni texnologik, tashkiliy va institutsional omillarni uyg‘unlashtirish zarur.

Umuman olganda, tadqiqot natijalari mahalliy xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish orqali ishlab chiqarish samaradorligini oshirishning katta imkoniyatlari mavjudligini ko‘rsatadi. Biroq ushbu imkoniyatlardan to‘liq foydalanish uchun ishlab chiqarish quvvatlarini modernizatsiya qilish, hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish va iqtisodiy rag‘batlantirish choralari kuchaytirish talab etiladi.

### XULOSA

Tadqiqot natijalari mahalliy xom ashyo asosida ishlab chiqarishni rivojlantirish milliy iqtisodiyot samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biri ekanligini ko‘rsatdi. Tahlillar asosida aniqlanishicha, ichki resurslardan samarali foydalanish ishlab chiqarish tannarxini pasaytirish, energiya va logistika xarajatlarini qisqartirish hamda importga qaramlikni kamaytirish imkonini beradi.

Hisob-kitoblar natijasida mahalliy xom ashyo asosida ishlab chiqarishni kengaytirish orqali ichki bozor sig‘imini sezilarli darajada oshirish va import hajmini kamaytirish mumkinligi asoslandi. Shu bilan birga, ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanmaslik, hududlararo hamkorlikning yetarli darajada rivojlanmaganligi va kichik hamda yirik biznes o‘rtasidagi integratsiyaning sustligi samaradorlikni cheklovchi asosiy omillar sifatida namoyon bo‘ldi.

Sanoat korxonalarida misolida olingan natijalar texnologik modernizatsiya va boshqaruv tizimini takomillashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanligini tasdiqladi. Energiya sarfini optimallashtirish va ishlab chiqarish jarayonlarini avtomatlashtirish orqali resurs tejamkorligiga erishish va ishlab chiqarish vaqtini qisqartirish imkoniyati mavjudligi aniqlandi.

Shuningdek, davlat-xususiy sheriklik va hududlararo iqtisodiy hamkorlik mexanizmlarini rivojlantirish ishlab chiqarish infratuzilmasini kengaytirish, kichik biznes subyektlarini qo‘llab-quvvatlash va ichki bozorni to‘liqroq qamrab olishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, mahalliy xom ashyo asosida ishlab chiqarish samaradorligini oshirish uchun quyidagi amaliy takliflar ishlab chiqildi: ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanishni ta’minlash, zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, energiya va resurs tejamkorligini kuchaytirish, shuningdek, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini kengaytirish.

Xulosa qilib aytganda, mahalliy xom ashyo resurslaridan samarali foydalanish milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish, barqaror rivojlanishni ta’minlash va tashqi iqtisodiy xatarlarga nisbatan barqarorlikni kuchaytirishda muhim omil hisoblanadi.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abdurahmonov Q.X. *Mehnat iqtisodiyoti va inson resurslarini boshqarish*. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2019.
2. Acemoglu D., Restrepo P. *Automation and New Tasks: How Technology Displaces and Reinstates Labor*. – Journal of Economic Perspectives, 2019.
3. Davlat statistika qo‘mitasi. *O‘zbekiston sanoati rivojlanishi bo‘yicha statistik to‘plam*. – Toshkent, 2022.
4. Ismailov B.S. *Sanoat iqtisodiyoti va ishlab chiqarish samaradorligi*. – Toshkent: Fan, 2020.
5. Krugman P., Wells R. *Economics* (6th edition). – New York: Worth Publishers, 2021.
6. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori. *Sanoatni rivojlantirish va mahalliy lashtirish dasturi to‘g‘risida*. – Toshkent, 2020.
7. Porter M.E. *Competitive Advantage of Nations*. – Updated edition. – New York: Free Press, 2019.
8. World Bank. *Uzbekistan Country Economic Update: Structural Reforms for Sustainable Growth*. – Washington DC, 2023.